



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
Q A R O R I

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2021 - yil 4 - oktabr

156-8-0-Q/21

Surxondaryo viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ochiq budjet” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 22-setabrdagi PQ-5250-son qarori ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida

2021-yilda o‘tkazilgan tashabbusli budjetlashtirish jarayonida fuqarolardan kelib tushgan murojaatlarda bayon etilgan o‘rinli va dolzarb muammolarni qisqa muddatlarda bartaraf etish hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish loyihalarini ishlab chiqish jarayoniga aholini faol jalb etish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ochiq budjet” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 22-setabrdagi PQ-5250-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

Moliya vazirligi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining O‘zbekiston Respublikasi respublika budjetidan Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasida (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) 1 mlrd so‘mdan kam mablag‘ shakllangan tuman va shaharlar uchun qo‘shimcha 57,9 mlrd so‘m, “Ochiq budjet” axborot portali orqali kelib tushgan takliflar soni 100 tadan ortiq bo‘lgan tuman va shaharlarga qo‘shimcha 59,5 mlrd so‘m mablag‘ ajratish to‘g‘risidagi takliflari ma‘qullanganligi;

2022-yil 1-yanvardan boshlab tuman va shaharlar budjetlari parametrlarida hududiy ichki yo‘llarni ta‘mirlash uchun ajratiladigan mablag‘larning 50 foizi “Ochiq budjet” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida aniqlangan ichki yo‘llarni ta‘mirlashga yo‘naltirish tartibi o‘rnatilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Termiz shahar va tumanlar hokimlari:

Jamg'armaga mablag'larning o'z vaqtida o'tkazilishini hamda Jamg'arma mablag'laridan maqsadli foydalanishni tashkil etsin;

har chorakda chorakdan keyingi oyning 25-sanasiga qadar jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha ma'lumotlar o'zlarining rasmiy veb-saytlari va "Ochiq budjet" axborot portaliga joylashtirib borsin.

4. Viloyat Moliya bosh boshqarmasi (B.Xursanov) Jamg'armadan 1 mlrd so'mdan kam mablag' shakllangan hamda kelib tushgan takliflar soni 100 tadan ortiq bo'lgan tuman va shaharlarga O'zbekiston Respublikasi respublika budjetidan qo'shimcha ravishda ajratilayotgan mablag'larni belgilangan tuaman (shahar)lar budjetlariga belgilangan muddatlarda va to'liq ajratilishini nazorat qilsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ochiq budjet" axborot portalini orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 22-setabrdagi PQ-5250-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan viloyat hokimligining "Nazorat-rejasi" ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari F.Mamanov zimmasiga yuklansin.

Surxondaryo viloyati hokimi



Bobolov T.A.

Сурхондарё вилоят ҳокимининг
2021 йил 4 октябрдаги
156-8-0-Q/21-сон қарорига
1-илова

О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ochiq budjet” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 22-setabrdagi PQ-5250-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan viloyat hokimligining nazorat rejasi

T/r	Qaror bandlari	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarilishi muddati	Mas’ul ijrochilar	
				Viloyat tashkilotlari	Mas’ullar
1.	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan loyihalar orasida “Yil tashabbusi” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Har yili mart oyida	Viloyat hokimligi, viloyat Moliya bosh boshqarmasi	F.Mamanov, B.Xursanov, Termiz shahar va tumanlar hokimlari
2.	Tashabbusli budjetlashtirish jarayonining monitoringini amalga oshirish bo‘yicha qo‘llanma va savolnomalar ishlab chiqish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022-yil yanvar	Viloyat hokimligi, viloyat Moliya bosh boshqarmasi	F.Mamanov, B.Xursanov, Termiz shahar va tumanlar hokimlari

3.	Tashabbusli budjetlashtirish amaliyotini kengaytirish bo'yicha Oliy Majlis Senatiga takliflar kiritish, shu jumladan: mahalliy davlat hokimiyati organlariga Moliya vazirligi tomonidan belgilangan umumiy tamoyillarga asoslangan tashabbusli budjetlashtirishning yangi amaliyotlarini joriy etish huquqini berish; jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni tanlab olishning umumiy mezonlarini takomillashtirish; jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni (muayyan hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda) tanlashning maxsus mezonlarini belgilash va qo'llash mexanizmini ishlab chiqish; taqdim etilgan tadbirlarni tanlash va ovoz berish bosqichlarida fuqarolarga tadbirlarni muhokama qilish va ochiq munozaralarda ishtirok etish imkoniyatini yaratish.	Takliflar ishlab chiqish va tegishli vazirlik va idoralarga taqdim etish	2022-yil III chorak	Viloyat hokimligi, viloyat Moliya bosh boshqarmasi	F.Mamanov, B.Xursanov, Termiz shahar va tumanlar hokimlari
4.	Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda jamoatchilik fikriga asosan loyihalarni tanlab olish mexanizmini yaratish.	Takliflar ishlab chiqish va tegishli vazirlik va idoralarga taqdim etish	2023-yil I chorak	Viloyat hokimligi, viloyat Moliya bosh boshqarmasi	F.Mamanov, B.Xursanov, Termiz shahar va tumanlar hokimlari
5.	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalar, yuzaga kelayotgan muammolar va sohaga oid boshqa mavzularda tele-dastur va radio eshittirishlarni tayyorlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Reja jadvali asosida	Viloyat hokimligi, viloyat Moliya bosh boshqarmasi, viloyat teleradiokompaniyasi	F.Mamanov, J.To'rayev, B.Xursanov, Termiz shahar va tumanlar hokimlari
6.	Ommaviy axborot vositalarida, shuningdek, tuman (shahar) hokimliklarining rasmiy veb-saytlarida va "Ochiq budjet" axborot portalida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan va tegishli mahalliy budjetlar mablag'lari hisobidan moliyalashtirilayotgan tadbirlar ijrosini keng yoritib borish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Hisobot choragidan keyingi oying 25-sanasidan kechiktirmay	Viloyat hokimligi, viloyat Moliya bosh boshqarmasi	F.Mamanov, B.Xursanov, Termiz shahar va tumanlar hokimlari